

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.02  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**YULDOSHBEKOV AVAZBEK ALISHER O'G'LI**

**SOLIQ MASLAHATI INSTITUTINING TASHKILY-HUQUQIY  
ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

12.00.02 – Konstitutsiyaviy huquq. Ma'muriy huquq.  
Moliya va bojxona huquqi

**yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Content of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Yuldoshbekov Avazbek Alisher o'g'li**

Soliq maslahati institutining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish.....3

**Yuldoshbekov Avazbek Alisher ugli**

Improving the organizational and legal basis of the Institute of Tax consulting...25

**Юлдошбеков Авазбек Алишер угли**

Совершенствование организационно-правовой основы института налогового консультирования .....45

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

List of published works

Список опубликованных работ..... 49

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.02  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**YULDOSHBEKOV AVAZBEK ALISHER O'G'LI**

**SOLIQ MASLAHATI INSTITUTINING TASHKILY-HUQUQIY  
ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

12.00.02 – Konstitutsiyaviy huquq. Ma'muriy huquq.  
Moliya va bojxona huquqi

**yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Yu1229 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.tsul.uz](http://www.tsul.uz)) va “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

<b>Ilmiy rahbar:</b>	<b>Ergashev Ikrom Abdurasulovich</b> yuridik fanlar doktori, professor
<b>Rasmiy opponentlar:</b>	<b>Ruzmetov Xayrullo Ibadullayevich</b> yuridik fanlar doktori, professor <b>Artikov Dilmurod Raxmatillayevich</b> yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
<b>Yetakchi tashkilot:</b>	<b>O‘zbekiston Respublikasi</b> <b>Jamoat xavfsizligi universiteti</b>

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi DSc.07/30.12.2019.Yu.22.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 12-aprel soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36 faks: (99871) 233-37-48, e-mail: [info@tsul.uz](mailto:info@tsul.uz)).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№1362-raqam bilan ro‘yxatga olingan) (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Amir Temur ko‘chasi, 13-uy. Tel.: (99871) 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 1-aprel kuni tarqatildi.

(2025-yil 1-apreldagi 21-son reyestr bayonnomasi).

**R.R. Xakimov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

**F.B. Maxmudov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

**I.R. Bekov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda soliq tushumlari muayyan funksiyalarni to'la-to'kis amalga oshirishda budget daromadining asosiy manbaya hisoblanadi. The Heritage Foundation xalqaro tadqiqot institutining 2023-yilgi ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonning iqtisodiy erkinlik ko'rsatkichi 55,9 ball bo'lib, 2023-yil indeksida eng erkin iqtisodiyot bo'yicha 103-o'rinni egalladi. Ushbu ko'rsatkich 2022-yilga nisbatan qiyoslanganda 0,8 ball yuqori bo'lib, O'zbekiston Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi 39 davlat orasida 23-o'rinni egallab kelmoqda. Iqtisodiy erkinlik indeksi bo'yicha Qozog'iston 71, Qirg'iziston 115, Tojikiston 146, Turkmaniston 161, Estoniya 6, Litva 20, Gruzuya 21, Latviya 17, Armaniston 50, Rossiya 125, Moldaviya 96, Belarus 145, Ozarbayjon esa 35-o'rinni egallagan. Ushbu ko'rsatkichlar esa o'z-o'zidan mamlakatda soliq nazoratining zamonaviy vositalarini qo'llash orqali budget intizomini ta'minlash, soliq tekshiruvlari sohasidagi qonunchilikni yanada takomillashtirishga alohida e'tibor qaratishga ehtiyoj mavjudligini ko'rsatmoqda.

Jahonda iqtisodiyoti rivojlangan davlatlar o'rtacha statistik koeffitsiyentga ega bo'lib, mamlakatda ishlaydigan soliq xizmatlarining 10 nafar xodimi uchun 11 nafar soliq maslahatchisi, Avstraliyada esa har 18 million kishiga 18 000 nafar soliq xizmati xodimi va 21 000 soliq maslahatchisi to'g'ri keladi. Ushbu ko'rsatkichlar xorijiy davlatlarda soliq maslahati institutiga berilayotgan e'tiborning nechog'lik yuqoriligidan dalolat beradi. Soliq maslahati institutini rivojlantirish soliqqa oid qonunchilikni takomillashtiribgina qolmasdan, balki mamlakatning umumiy investitsion jozibadorligini ham yanada oshirishga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda jami 204 nafar soliq maslahatchilari va 74 ta soliq maslahatchilari tashkiloti (keyingi o'rinlarda SMT) ro'yxatdan o'tgan bo'lib, shundan atigi 29 ta SMT yuridik shaxs ixtiyoriy tugatilayotganda xulosa berish huquqiga ega tashkilot hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda, yurtimizda faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar bilan proporsional ravishda taqqoslaydigan bo'lsak, jami 485 024 ta korxonalar va tashkilotga atigi 204 nafar soliq maslahatchisi to'g'ri kelmoqda. Bu esa o'rtacha har bir soliq maslahatchisiga 2 377 ta korxonalar to'g'ri kelishini anglatadi, bu juda yuqori nisbatdir. So'nggi yillarda soliq maslahati institutining nechog'lik zarurligini soliq qonunchiligidagi o'zgarishlar va soliqlar hamda yig'imlar sohasidagi yangidan yangi qonun hujjatlarining qabul qilinishi, shu bilan bir qatorda, mazkur tizimdagi rivojlanish tendensiyalari bilan izohlash mumkin.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi (2019), "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi (1997), "Soliq maslahatiga oid faoliyat to'g'risida"gi qonunlari (2022), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-sentabrdagi PQ-4846-sonli "Soliq maslahati sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi PF-5468-son "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida"gi, 2019-yil 26-sentabrdagi PF-5837-son "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2021-yil 7-sentabrdagi PF-6307-son "Soliq majburiyatlarini bajarishda tadbirkorlik subyektlariga yanada qulay shart-sharoitlar yaratish chora-

tadbirlari to'g'risida"gi, 2022-yil 28-iyundagi PF-162-son "Soliq ma'muriyatchiligini isloh qilish davrida biznes uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 17-apreldagi "Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 320-sonli qarori hamda sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlashga mazkur dissertatsiya muayyan darajada hissa qo'shadi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi bo'yicha bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Mamlakatimiz huquqshunos olimlaridan E.T. Xojiyev, O.M. Mahkamov, L.B. Xvan, A.A. Li, Y.S. Kanyazov, I.A. Ergashev, B.B. Sirojov, I.Q. To'raboyev, B.A. Normatov, iqtisodchi olim O.S. Yakubov va boshqalar soliq huquqi hamda soliq maslahati institutining tashkiliy huquqiy jihatlariga oid ayrim jihatlarini muayyan darajada tadqiq etgan<sup>1</sup>.

MDH davlatlarida soliq maslahati institutining tashkiliy-huquqiy asoslariga oid izlanishlarni N.A. Urman, A.P. Posadskiy, T.N. Gushina, L.A. Mazurina, D.A. Artemenko, D.G. Chernik, L.S. Kirina, S.V. Barulin, A.A. Orlova, M.V. Yelesinalar, A.K. Kobilyanskiy, T.A. Demisheva, N.N. Bashkirova, Y.B. Sugrobova, G.V. Shevina, Y.K. Mugdasimova, N.V. Timoshkova kabi olimlar amalga oshirishgan<sup>2</sup>.

Xorijiy mamlakatlarda soliq maslahati institutining tashkiliy-huquqiy asoslariga oid doktrinal jihatlar L.E. Greyner, R.N. Antony, J. Breytveyt, K.B. Kloyd, B.K. Spilker, R. Myorfy, J. Freknall-Hyujes, M.J. Greytz, J. Fridman, P. Piston, R.K. Larsen, H. Shmidt va boshqalar tomonidan keng o'rganilgan<sup>3</sup>.

Shunga qaramasdan soliq maslahati institutining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish masalalari alohida yaxlit tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan mosligi.** Dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat yuridik universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga kiritilgan hamda "Soliq qonunchiligini rivojlantirish" va "Tadbirkorlik subyektlari huquqlarining kafolatlari va ularni huquqiy himoya qilishni takomillashtirish masalalari" ilmiy tadqiqotlarining ustuvor yo'nalishlari doirasida amalga oshirilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** O'zbekistonda soliq maslahati institutining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan tegishli tavsiya va takliflarni ilgari surishdan iborat.

---

<sup>1</sup> Mazkur olimlar asarlarining to'liq ro'yxati dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida berilgan.

<sup>2</sup> Mazkur olimlar asarlarining to'liq ro'yxati dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida berilgan.

<sup>3</sup> Mazkur olimlar asarlarining to'liq ro'yxati dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida berilgan.

### **Tadqiqotning vazifalari:**

soliq maslahati tushunchasi va uning yuridik mazmunini tashkil etuvchi tushunchalarning yuridik tabiatini ilmiy-nazariy tahlil qilish;

soliq maslahati instituti bo'yicha ilmiy konsepsiyalar va doktrinal yondashuvlarning mazmunini tahlil qilish;

soliq maslahatini amalga oshirishda soliq maslahatchilari palatasi faoliyatini takomillashtirish;

soliq maslahatini amalga oshirishning zamonaviy huquqiy mexanizmlarini ishlab chiqish;

O'zbekistonda soliq intizomini ta'minlash sohasida soliq maslahatchilari yordamida soliq to'lovchilar huquqiy madaniyatini oshirishning ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqish;

soliq maslahatini amalga oshirishda raqamli texnologiyalarni joriy qilish va uning istiqbollari huquqiy baho berish;

soliq maslahati institutining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha doktrinal yondashuvlar va xalqaro tajribani o'rganishdan iborat.

**Tadqiqotning obyektini** O'zbekistonda soliq maslahati institutining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar tashkil etadi.

**Tadqiqotning predmetini** O'zbekistonda soliq maslahati institutining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish bilan bog'liq munosabatlarni huquqiy tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, huquqni qo'llash amaliyoti, xorijiy mamlakatlar qonunchiligi va amaliyoti hamda soliq huquqi, konstitutsiyaviy huquq va ma'muriy huquqda mavjud bo'lgan konseptual yondashuvlar, ilmiy-nazariy qarashlar hamda huquqiy kategoriyalar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot olib borishda ilmiy bilishning tizimli va funksional tahlil, tarixiylik, mantiqiylik, qiyosiy-huquqiy tahlil, statistik, sotsiologik so'rovlar o'tkazish, induktiv va deduktiv tahlil kabi usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

sudlar, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar hamda ularning mansabdor shaxslari soliq maslahatchilarining mijozning (ishonch bildiruvchining) vakili sifatidagi huquq va harakatlarini cheklashga haqli emasligi asoslab berilgan;

soliq solish bilan hamda soliqqa oid huquqbuzarliklar, soliq organlarining hujjatlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari va (yoki) harakatsizligi ustidan shikoyat qilish bilan bog'liq ishlarni ko'rib chiqish chog'ida sudlarda, huquqni muhofaza qiluvchi hamda nazorat qiluvchi organlarda hisoblash texnikasi va aloqa vositalaridan, audio- va videoyozuv qurilmalaridan foydalanish huquqi berilishi asoslantirilgan;

soliq maslahatchilari ishining sifatini ichki nazorat qilish qoidalarini belgilashi va ularga rioya etilishi shartligi, shuningdek, soliq maslahatchilari ishining sifatini ichki nazorat qilishni tashkil etishga doir talablar soliq maslahatining milliy standartlari bilan belgilanishi asoslab berilgan;

solih maslahatchisi ishni sifatsiz bajarganligi, tijorat sirini oshkor etganligi natijasida yetkazilgan zarar va solih maslahatchilari tashkilotining zarar ko'rishiga olib kelgan boshqa xatti-harakatlar uchun qonunchilikka muvofiq solih maslahatchilari tashkiloti oldida javobgar bo'lishi asoslantirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

O'zbekiston Respublikasining solih maslahati faoliyati sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini qonun bilan belgilash taklifi ishlab chiqilgan;

solih maslahati institutining yuridik tabiati va mazmunini nazariy-metodologik jihatdan tushunish, terminlarning turlicha talqin qilinishining oldini olish maqsadida "maslahat", "solih maslahati", "solih maslahatchisi" va "solih maslahati instituti" tushunchalarining mualliflik ta'rifi ishlab chiqilib, ilmiy-amaliy qo'llash uchun taklif etilgan;

O'zbekiston Respublikasining "Solih maslahatiga oid faoliyat to'g'risida"gi Qonunida "Bila turib soxta tuzilgan solih maslahatiga oid xulosa uchun javobgarlik belgilash taklifi asoslab berildi;

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksining 60-moddasiga solih maslahatchilarining shartnoma bo'yicha (ixtiyoriy) vakil bo'lishi mumkinligini nazarda tutuvchi qo'shimchani kiritish taklif etilgan;

kasb etikasining umumiy qoidalari, solih maslahatchilari faoliyatiga oid asosiy prinsiplar, solih maslahatchisining kasbiy nufuzi va shaxsiy qadr-qimmatini asrashga doir talablar, solih maslahatchilarining shaxsiy va mehnat faoliyatidagi o'zaro munosabatlarini tartibga soluvchi normalar va boshqa qoidalarni o'zida mujassam etgan "Solih maslahatchisining kasb etikasi qoidalari"ni ishlab chiqish zarurligi ilmiy asoslantirilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot ishida qo'llanilgan usullar, uning doirasida foydalanilgan nazariy ma'lumotlar rasmiy manbalardan olinganligi, xorijiy tajriba va milliy qonun hujjatlarining o'zaro tahlil qilinganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi, ilmiy tadqiqot natijalarining xorijiy va milliy nashrlarda e'lon qilinganligi, bildirilgan taklif va xulosalardan tegishli davlat organlari huquq ijodkorligida foydalanilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Mazkur tadqiqot natijalari solih maslahati institutining nazariy asoslarini rivojlantirishga, solih maslahati institutiga oid qonunchilikni takomillashtirishga xizmat qiladi, tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan kelgusi ilmiy faoliyatda, qonun ijodkorligi jarayonida, huquqni qo'llash amaliyotida, solih maslahatiga oid qonunchilik normalarini sharhlashda, milliy qonunchilikni takomillashtirish hamda Ma'muriy huquq, Moliya huquqi, Solih huquqi fanlarini ilmiy-nazariy jihatdan boyitishga xizmat qiladi, shuningdek, tadqiqot natijalaridan yurisprudensiya va psixologiya yo'nalishlarida yangi ilmiy izlanishlar olib borishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati qonun ijodkorligi faoliyati, xususan, normativ-huquqiy hujjatlar tayyorlash, ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish jarayoni hamda huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** O‘zbekistonda soliq maslahati institutining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish borasida olingan ilmiy natijalar asosida:

sudlar, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar hamda ularning mansabdor shaxslari soliq maslahatchilarining mijozning (ishonch bildiruvchining) vakili sifatidagi huquqlarini va harakatlarini cheklashga haqli emasligi haqidagi taklifdan O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 4-avgustdagi “Soliq maslahatiga oid faoliyat to‘g‘risida”gi O‘RQ-787-son Qonuni bilan ushbu qonunning 15-moddasi 8-qismini shakllantirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2024-yil 15-oktabrdagi 3/08-201-sonli dalolatnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi soliq maslahatchilarining vakillik qilish huquqlarini yanada mustahkamlashga xizmat qilgan;

soliq solish bilan hamda soliqqa oid huquqbuzarliklar, soliq organlarining hujjatlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari va (yoki) harakatsizligi ustidan shikoyat qilish bilan bog‘liq ishlarni ko‘rib chiqish chog‘ida sudlarda, huquqni muhofaza qiluvchi hamda nazorat qiluvchi organlarda hisoblash texnikasi va aloqa vositalaridan, audio va video yozuv qurilmalaridan foydalanish huquqi berilishi haqidagi taklifdan O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 4-avgustdagi “Soliq maslahatiga oid faoliyat to‘g‘risida”gi O‘RQ-787-son Qonuni bilan ushbu qonunning 19-moddasi birinchi qismining 13-bandini shakllantirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2024-yil 15-oktabrdagi 3/08-201-sonli dalolatnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi soliq maslahatchilariga huquqni muhofaza qiluvchi hamda nazorat qiluvchi organlarda hisoblash texnikasi va aloqa vositalaridan, audio- va videoyozuv qurilmalaridan foydalanish huquqi berilishini ta‘minlashga xizmat qilgan;

soliq maslahatchilari ishining sifatini ichki nazorat qilish qoidalarini belgilashi va ularga rioya etilishi shartligi, shuningdek, soliq maslahatchilari ishining sifatini ichki nazorat qilishni tashkil etishga doir talablar soliq maslahatining milliy standartlari bilan belgilanishiga oid takliflardan O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 4-avgustdagi “Soliq maslahatiga oid faoliyat to‘g‘risida”gi O‘RQ-787-son Qonuni bilan ushbu qonunning 20-moddasi birinchi qismi 10-bandini shakllantirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2024-yil 15-oktabrdagi 3/08-201-sonli dalolatnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi soliq maslahatining milliy standartlari asosida soliq maslahatchilari ishining sifatini ichki nazorat qilish qoidalarini belgilashi, shuningdek, soliq maslahatchilari ishining sifatini ichki nazorat qilishni tashkil etishga doir talablarning o‘rnatilishiga xizmat qilgan;

soliq maslahatchisi ishni sifatsiz bajarganligi, tijorat sirini oshkor etganligi natijasida yetkazilgan zarar va soliq maslahatchilari tashkilotining zarar ko‘rishiga olib kelgan boshqa xatti-harakatlar uchun qonunchilikka muvofiq soliq maslahatchilari tashkiloti oldida javobgar bo‘lishi to‘g‘risidagi takliflardan O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 4-avgustdagi “Soliq maslahatiga oid

faoliyat to'g'risida"gi O'RQ-787-son Qonuni bilan ushbu qonunning 31-moddasi ikkinchi qismini shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2024-yil 15-oktabrdagi 3/08-201-sonli dalolatnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi soliq maslahatchisi ishni sifatsiz bajarganligi va boshqa harakatlari uchun qonunchilikka muvofiq soliq maslahatchilari tashkiloti oldida javobgar bo'lishi qonunda belgilanishiga xizmat qilgan;

Ushbu takliflar O'zbekistonda soliq maslahatchilarining huquqlarini to'sqinliksiz amalga oshirishga, ular tomonidan mijozlarining huquqlarini himoya qilishda qo'shimcha kafolatlashga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta respublika miqyosida o'tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o'tgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish, shu jumladan, OAK tomonidan dissertatsiya asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan nashrlarda 12 ta maqola (shu jumladan 2 ta xorijiy maqola) chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tuzilishi kirish, 8 ta paragrafnii qamrab olgan 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilova qismlaridan iborat. Dissertatsiya hajmi 156 betni (foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashqari) tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi, tadqiq etilayotgan muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan mosligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekt va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinganligi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, natijalarning e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi haqida ma'lumotlar yoritib berilgan.

Dissertatsiyaning **“Soliq maslahati institutining nazariy va huquqiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida soliq maslahati tushunchasi va uning yuridik tabiati, soliq maslahati institutini tashkil etish bo'yicha ilmiy-nazariy yondashuvlar tahlili, soliq maslahatini amalga oshirish prinsiplarining nazariy-huquqiy jihatlari tahlil qilingan.

“Maslahat”, *“soliq maslahati”* va *“soliq maslahatchisi”* atamalariga mualliflik ta'rifi ishlab chiqilib, soliq maslahati sohasini tartibga solish, ushbu sohaning mamlakatda erkin bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishning muhim elementi sifatidagi ahamiyati ochib berildi hamda ilmiy izohlandi.

Adabiyotlarda soliq maslahatiga oid quyidagi uchta tadqiqot oqimi paydo bo'lganligini ko'rishimiz mumkin: **empirik**, **eksperimental** va **analitik**. Empirik tadqiqotlar soliq maslahatchilari tomonidan soliqlarni to'lanishi darajasiga ta'siri va soliq maslahatchilarining auditor sifatidagi ikki tomonlama rolga qaratilgan. Eksperimental tadqiqotlar esa soliq maslahatchisi va mijozlarning qarorlarini qabul qilishga qaratilgan. Analitik tadqiqotlar odatda soliq maslahatchisiga strategik o'yinchi sifatida emas, balki noaniq soliq masalalarini hal qilish mexanizmi sifatida qaraydi. Bundan farqli o'laroq, bizning tadqiqotimiz yuqorida ta'kidlangan empirik tadqiqotlar sirasiga kiradi hamda soliq maslahatchilarining soliq siyosatidagi o'rni va ahamiyatini yoritishga bag'ishlangan.

Tadqiqotchi soliq maslahati institutiga oid ilmiy-nazariy qarashlar va qonun normalari bo'yicha L.B. Xvan, A.A. Li, I.A. Ergashev, N.A. Urman, A.P. Posadskiy, T.N. Gushina, L.A. Mazurina, D.A. Artemenko, D.G. Chernik, L.S. Kirina, S.V. Barulin, A.A. Orlova, M.V. Yelesina, L.E. Greyner, R.N. Antony va J. Breytveyt kabi olimlarning tadqiqot ishlarini o'rganib chiqqan holda: "Soliq maslahati – muayyan vakolatga ega bo'lgan soliq maslahatchilari tashkilotining jismoniy va yuridik shaxslarga belgilangan tarif hamda shartnoma asosida soliq maslahatiga oid xizmatlar ko'rsatish faoliyati hisoblanadi", – degan mualliflik ta'rifini ilgari surgan.

Xususan, soliq maslahati faoliyatining kelib chiqish tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, dastlab AQShda shaxsiy daromad solig'iga oid deklaratsiyalarning taxminan yarmi soliq maslahatchilari tomonidan to'ldirilganligi ma'lum qilingan (Blumental va Slemrod 1992, Erard 1993).

Soliq maslahati faoliyatini tartibga soluvchi prinsiplarga doir asosiy doktrinalar sifatida "**Legality**", "**Professional Ethics**", "**Transparency and Accountability**" va "**Client Interest Priority**" kabilar qayd etildi.

Soliq huquqiga oid doktrinalarga nazar tashlaydigan bo'lsak, ko'plab tadqiqotchilar soliq intizomini ta'minlashda fuqarolarning soliqlarni to'lashga bo'lgan ichki motivatsiyasini asosiy omil sifatida ko'rsatishadi (Schvartz va Orlean 1967, Levis 1982, Roth, Scholz va Witte 1989, Alm, McClelland va Schulze 1992, Pommerehne 1999, Hart va Frey 1994, Frey 1997, 2003, Frey va Feld 2002, Feld va Tyran 2002).

Soliqqa oid qonunchilikdagi yangiliklarni baholash va uning soliq sohasidagi innovatsion rivojlanishi, shu bilan bir qatorda, umumiy masalalar doirasidagi maslahatlashuvlar bo'yicha soliq maslahati faoliyatining asosiy prinsiplari ruxsat beruvchi va taqiqlovchi kabi ikki guruhga ajratib o'rganildi.

Dissertant tomonidan soliq maslahatiga oid faoliyatning asosiy prinsiplari sifatida qonuniylik, mustaqillik, kasbiy bilimga egalik, maxfiylik, kasbiy javobgarlik va professional xulq-atvor prinsiplarining dolzarbligi hamda muhim ahamiyatga egaligi ilmiy isbotlandi.

Tadqiqot ishi doirasida soliq maslahati faoliyati sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini "Soliq maslahatiga oid faoliyat to'g'risida"gi Qonunga kiritish taklifi ilgari surildi.

Tadqiqotchi "soliq maslahati" va "soliq maslahatchisi" tushunchalarini Soliq kodeksida yoritishga ehtiyoj mavjudligi yuzasidan o'tkazilgan so'rovnomada

ishtirokchilarning 81 foizi “ehtiyoj mavjud” va qolgan 17,6 foizi “ehtiyoj mavjud emas” deb bergan javoblari orqali yuqoridagi ikki tushunchani Soliq kodeksiga kiritish zarurligini asoslashga harakat qilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Soliq maslahatini tashkil etishning tashkiliy-huquqiy jihatlari”** deb nomlanib, ushbu bobda soliq maslahatini milliy standartlar asosida tartibga solishning huquqiy asoslari, soliq maslahatiga oid faoliyatni tashkil etishning huquqiy masalalari, soliq maslahatchilari tashkiloti va soliq maslahatchilarining kasbiy javobgarligiga oid masalalar tahlil qilingan.

Xususan, soliq maslahati milliy standartlari mamlakatimizda soliq maslahatiga oid faoliyatni normativ tartibga solishning asosiy elementi hisoblanib, ushbu standartlarda belgilangan talablar barcha soliq maslahatchilari tomonidan qo‘llanilishi majburiy xarakterga ega ekanligi, milliy standartlar bilan tartibga solinmagan munosabatlar qonunchilik hujjatlari va taraflar o‘rtasida tuziladigan shartnomalar bilan tartibga solinishi qayd etilgan.

Bundan tashqari, dissertant soliqqa oid nizoni sudgacha hal qilish davomida va sudda mijozning (ishonch bildiruvchining) manfaatlarini ko‘zlab vakillik qilishga soliq maslahati bo‘yicha xizmatlar shartnoma asosida ko‘rsatilishini ta’kidlaydi.

Tadqiqotchi soliq maslahatiga oid milliy standartlarni tahlil qilgan holda, ularning umumiy soni 5 tani tashkil etishini, shundan asosiy qismi 2012–2013-yillar hisobiga to‘g‘ri kelishini ta’kidlab o‘tgan.

Shuningdek, dissertant tomonidan soliq maslahati faoliyati milliy standartlar bilan tartibga solinadigan xorijiy mamlakatlardan AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Avstraliya va Yaponiya kabi rivojlangan davlatlarning ijobiy tajribalari o‘rganilib tahlil qilingan.

Jumladan, Michael Lang o‘zining “European Tax Practice Standards” monografiyasida milliy standartlarning iyerarxik tizimini tahlil qilib, **“qonunga oid standartlar”**, **“professional etika standartlari”** va **“xizmat ko‘rsatish standartlari”** kabi to‘rt guruhga bo‘lib o‘rganganligi qayd etilgan.

Tadqiqotchi tomonidan soliq maslahatini tashkil etish va tartibga solishga doir ijtimoiy munosabatlarni belgilab beruvchi milliy qonunchilik tizimi tahlil qilinib, soliq maslahatiga oid faoliyatning qonunchilik tahlilini o‘tkazishning bir qancha ijobiy jihatlari mavjud ekanligi, jumladan, tahlillar orqali soliq maslahatiga oid qonunlardagi kamchiliklar va bo‘shliqlar aniqlanishi mumkinligi va natijada qonunlarni yanada takomillashtirishga imkon yaratilishi ta’kidlangan.

Dissertant tomonidan AQSh, Kanada, Belarus, Germaniya, Ozarbayjon, Buyuk Britaniya, Malayziya va Singapur kabi ko‘plab rivojlangan mamlakatlarning ijobiy tajribasi o‘rganilib, soliq maslahatchisining maqomini soliqqa oid asosiy qonunchilikda alohida modda yoki bob shaklida qayd etish taklifi ilgari surilgan.

Xususan, dissertatsiya ishi doirasida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalariga ko‘ra, “Sizningcha, O‘zbekiston Respublikasining “Soliq maslahatiga oid faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuniga yangi tahrirdagi “Soliq maslahatchisi maqomiga ega bo‘lish” nomli moddani kiritishga zarurat mavjudmi?” degan savolga respondentlarning 75,6 % qismi “zarurat mavjud” deb javob bergan bo‘lsalar,

qolgan 24,4 % qismi esa “zarurat mavjud emas” deya o‘z pozitsiyalarini bildirganlar.

Shu bilan bir qatorda, dissertant tomonidan AQSh, Daniya, Italiya, Belgiya va Slovakiya kabi davlatlarning ijobiy tajribalaridan foydalangan holda O‘zbekiston Respublikasi Soliq maslahatchilarining kasb etika qoidalari loyihasi ishlab chiqilib, soliq maslahatchilari faoliyatiga kasb etika qoidalarini joriy etish lozimligi ilmiy asoslab berilgan.

Bundan tashqari, ilmiy ish doirasida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalariga ko‘ra, “Sizningcha, soliq maslahatchilarining Etika kodeksini ishlab chiqishga zarurat mavjudmi?” degan savolga respondentlarning 70,1 foizi “zarurat mavjud” deya javob bergan bo‘lsalar, qolgan 29,9 foizi esa “zarurat mavjud emas” degan javob bilan o‘z pozitsiyalarini bildirib o‘tganlar.

Shuningdek, tadqiqot doirasida o‘tkazilgan so‘rovnoma va intervyular asosida dissertant soliq maslahatchilari faoliyatini majburiy sug‘urtalash tizimini joriy etish zarurligi hamda soliq maslahatchisi tomonidan bila turib soxta xulosa tuzish uchun javobgarlik masalasini O‘zbekiston Respublikasining “Soliq maslahatiga oid faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuniga kiritish taklifini ilgari surgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Soliq maslahatiga oid faoliyatni takomillashtirish istiqbollari”** deb nomlangan. Bunda soliq maslahatiga oid faoliyatda axborot-kommunikatsion texnologiyalarini qo‘llashni takomillashtirishning huquqiy mexanizmlari, soliq maslahatiga oid faoliyatning normativ-huquqiy bazasini takomillashtirish va uning samaradorligini oshirish masalalari tahlil qilingan.

Jumladan, soliq maslahati faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan turli xildagi manfaatlar to‘qnashuvi va boshqa salbiy holatlarning oldini olish maqsadida qonunning 18-moddasiga davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslari, shuningdek, qonunchilikka muvofiq tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishi taqiqlanadigan boshqa shaxslarni soliq maslahatchilari tashkilotining muassislari bo‘lishi mumkin emasligini belgilovchi qo‘shimcha band kiritilishi va qonunning 18-moddasiga soliq maslahatchilari tashkilotiga faqat o‘zi uchun mazkur soliq maslahatchilari tashkiloti asosiy ish joyi bo‘lgan soliq maslahatchisi rahbar bo‘lishi hamda soliq maslahatchilari tashkilotining filiali tashkil etilganda filial rahbari soliq maslahatchisi bo‘lishi shartligini belgilovchi bandlar kiritilishi taklif etilgan.

Shuningdek, dissertatsiya doirasida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalariga ko‘ra, “Soliq maslahatchilari tomonidan sudlarda, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlarda hisoblash texnikasi hamda aloqa vositalaridan, audio- va videoyozuv qurilmalaridan foydalanish borasida to‘sqinliklar mavjudmi?” degan savolga respondentlarning 43,3 foiz qismi “foydalanishning imkoniyati deyarli mavjud emas”, 15,7 foiz qismi “qisman mavjud (sudlarda)”, 18,1 foiz qismi “qisman mavjud (huquqni muhofaza qiluvchi organlarda)” va qolgan 22,8 foiz qismi “to‘sqinliklar mavjud emas” degan javoblar bilan o‘z fikrlarini bildirib o‘tganlar.

Yuqorida qayd etilgan so‘rovnoma natijalariga asosan, dissertant huquqni muhofaza qiluvchi organlar va sudlarda soliq maslahati faoliyatini nafaqat soliq

maslahatchilari tashkiloti orqali, balki yakka tartibda ham amalga oshirish bo'yicha vakolat berish, xususan, yuqorida qayd etilgan Oliy Sud Plenumi qarorida soliq maslahatchilari tomonidan huquqni muhofaza qiluvchi organlar va jinoyat ishlari bo'yicha sudlarda ham vakillik qilishlari mumkinligini hamda soliq maslahatchilari tomonidan sudlarda, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlarda hisoblash texnikasi hamda aloqa vositalaridan, audio- va videoyozuv qurilmalaridan foydalanish borasidagi huquqlarini qat'iy belgilab qo'yish taklifini ilgari surgan.

Bundan tashqari, tadqiqotchi tomonidan Germaniya, AQSh, Buyuk Britaniya va Yaponiya davlatlarining ijobiy tajribasidan foydalangan holda soliq maslahatchilarini turli sohalar bo'yicha ixtisoslashtirish zarur degan to'xtamga kelingan. Bunda maslahatchilar o'z sohalarida chuqur bilim va tajribaga ega bo'lgan holda mijozlarga o'z sohalariga oid aniq va sifatli maslahatlar berish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Xorvatiya, AQSh, Buyuk Britaniya, Avstraliya, Hindiston, Singapur tajribasi asosida "e-soliqmaslahatchi.uz" elektron platformasi negizida muntazam ravishda soliq maslahatchilarining malakasini oshirish uchun onlayn ta'lim platformasini yaratish zarur degan to'xtamga kelingan.

Shuningdek, tadqiqot doirasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga asosan, "Sizningcha, "Soliq maslahatchi" ilmiy-ommabop jurnalini yuritishga ehtiyoj mavjudmi?" deya omma e'tiboriga berilgan savolga respondentlarning 45,7 foiz qismi "ehtiyoj mavjud" deb javob bergan bo'lsalar, 15,7 foiz qismi "ehtiyoj mavjud emas" va qolgan 26 foiz qismi "elektron tarzda yuritish lozim" degan javoblar bilan o'z pozitsiyalarini bildirib o'tganlar.

Yuqoridagi so'rovnoma va ilmiy izlanishlar natijalariga ko'ra, tadqiqotchi Sloveniya, Portugaliya va Belarus davlatlarining ijobiy tajribalaridan kelib chiqqan holda Soliq maslahatchilari palatasi huzurida "Soliq maslahatchi" ilmiy-ommabop jurnalini elektron tarzda yuritish va unda soliq qonunchiligidagi asosiy o'zgarishlar va yangiliklar, soliq hisobotlarini to'g'ri to'ldirish bo'yicha maslahatlar, soliqlarni optimallashtirish usullari, tez-tez so'raladigan savollar va javoblar, soliq maslahatchilari va soliq maslahatchilari tashkilotlari tomonidan erishilgan ijobiy natijalar, yutuqlar hamda sud amaliyotidan qiziqarli misollarni e'lon qilib borish taklifini ilgari surgan.

Shu bilan bir qatorda, dissertant tomonidan Singapur, Niderlandiya, Estoniya, Xorvatiya, Gretsiya va Portugaliya kabi davlatlarning ijobiy tajribasidan foydalangan holda soliq maslahatchilari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlardan foydalanish va ularning xulosasini belgilangan muddatlarda olish, soliq maslahatchilarini tezda qidirib topish, ularning maxsus bilim darajasini aniqlash va ishga jalb qilishni qisqa vaqtlarda amalga oshirish, soliq maslahatchilari va soliq maslahatchilari tashkilotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, ularga ishlov berish jarayonlarini kompleks avtomatlashtirish hamda Soliq maslahatchilari palatasi bilan soliq maslahatchilari va soliq maslahatchilari tashkilotlarining barcha turdagi hamkorliklarini ta'minlash uchun mo'ljallangan "e-soliqmaslahatchi.uz" yagona axborot tizimini joriy etish taklifi ilgari surilgan.

## XULOSA

“Soliq maslahati institutining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish” mavzusidagi tadqiqotda quyidagi ilmiy-nazariy, qonun ijodkorligi va huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirishga oid xulosalarga kelindi:

### I. Ilmiy-nazariy taklif va xulosalar:

1. Soliq maslahati faoliyatini tartibga soluvchi prinsiplarga doir asosiy doktrinalar sifatida “Qonuniylik doktrinasini”, “Professional etika doktrinasini”, “Shaffoflik va hisobdorlik doktrinasini” va “Mijoz manfaatlarining ustuvorligi doktrinasini” qayd etildi.

2. Soliq maslahati modellari xususiyatlari o‘rganilib, bugungi kunda mamlakatimizda **davlat nazorati va o‘z-o‘zini boshqarish elementlarini uyg‘unlashtirgan o‘ziga xos aralash model** shakllanmoqda, deb qayd etildi.

3. Soliq maslahati institutining soliq tizimini takomillashtirish, soliq to‘lovchilarning huquqiy savodxonligini oshirish va soliq huquqbuzarliklarining oldini olishdagi kompleks roli tizimli tahlil qilindi.

4. Ilmiy-amaliy jihatdan soliq maslahati faoliyatini tashkil etish va tartibga solishda ishtirok etuvchi subyektlarni **davlat boshqaruvi organlari va nodavlat professional tashkilotlarga** ajratish taklif etildi.

5. Soliq maslahati faoliyatini amalga oshirishda axborot-kommunikatsion texnologiyalarning roli va ahamiyati ilmiy jihatdan asoslandi. **Sun‘iy intellekt va zamonaviy texnologiyalar** soliq maslahati faoliyatining samaradorligini oshirish, hujjatlar yuritilishini soddalashtirish va soliq to‘lovchilarga yuqori sifatli xizmat ko‘rsatishda muhim rol o‘ynashi isbotlandi.

6. Soliq maslahatchilarining faoliyati quyidagi prinsiplarga asoslanishi kerakligi to‘g‘risidagi to‘xtamga kelindi:

- qonuniylik;
- mustaqillik;
- kasbiy bilimga egalik;
- maxfiylik;
- kasbiy javobgarlik;
- professional xulq-atvor.

7. Dissertatsiya doirasida quyidagi huquqiy tushunchalarga mualliflik tariflari ishlab chiqildi:

*“Maslahat – bu ijtimoiy va yuridik masalalar bo‘yicha mutaxassis tomonidan beriladigan professional fikr, tavsiya yoki yo‘l-yo‘riqni anglatib, biror shaxs yoki tashkilotga o‘z huquq va majburiyatlarini tushunish, huquqiy muammolarni hal qilish yoki huquqiy holatni baholashda yordam berishni maqsad qiladi”;*

*“Soliq maslahati – bu muayyan vakolatga ega bo‘lgan soliq maslahatchilari tashkilotining jismoniy va yuridik shaxslarga belgilangan tarif hamda shartnoma asosida soliq maslahatiga oid xizmatlar ko‘rsatish faoliyati hisoblanadi”;*

*“Soliq maslahatchisi – bu qonunda belgilangan tartibda mijozga (ishonch bildiruvchiga) soliqlar va yig‘imlarni hisoblab chiqarish hamda to‘lash, soliq hisobotini tayyorlash va taqdim etish, soliq imtiyozlarini qo‘llashga doir tavsiyalar*

*taqdim etish masalalari bo'yicha maslahat berish hamda soliqqa oid huquqiy munosabatlar bilan bog'liq bo'lgan boshqa xizmatlarni ko'rsatuvchi muayyan vakolatga ega bo'lgan shaxsdir*";

*“**soliq maslahati instituti** – bu soliq solinadigan shaxslar (soliq to'lovchilar, yig'implarni to'lovchilar, soliq agentlari, banklar) tomonidan soliq majburiyatlarini bajarish va uning ijrosini ta'minlash bo'yicha normativ tarzda belgilangan qoidalarni qo'llash bo'yicha professional mulohazalar va huquqni qo'llash amaliyotidagi tendensiyalardan foydalanishga asoslangan qarorlarni qo'llab-quvvatlash tizimi hisoblanadi*”;

*“**Soliq maslahatiga oid xulosa** — belgilangan tartibda soliq maslahatchilari tashkiloti tomonidan amalga oshirilgan soliq maslahati xizmatlarining natijalari aks ettirilgan hamda soliq to'lovchi tomonidan taqdim etilgan hujjatlar va ma'lumotlar asosida tuziladigan yozma hujjat*”;

*“**Soliq maslahatchilari reyestri** — soliq maslahatchilarining faoliyat yuritish huquqiga ega bo'lgan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'zida mujassam etgan, Soliq maslahatchilari palatasi tomonidan yuritiladigan elektron ma'lumotlar bazasi*”;

*“**Soliq maslahati xizmatlari bozori** — soliq maslahatchilari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar, ularning sifati, narxi va raqobat darajasini belgilovchi hamda shakllantiruvchi munosabatlar tizimi*”;

*“**Soliq maslahatchisining kasbiy kompetensiyasi** — soliq maslahatchisining o'z faoliyatini professional darajada amalga oshirish uchun zarur bo'lgan nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, shaxsiy fazilatlar va kasbiy tajriba majmui*”;

*“**Soliq maslahatining milliy standartlari** — soliq maslahati sohasidagi faoliyatni tartibga soluvchi, xizmatlar sifatini ta'minlash va nazorat qilish uchun mo'ljallangan me'yoriy talablar tizimi*”.

## **II. Tadqiqot natijalari bo'yicha qonunchilik normalarini takomillashtirishga qaratilgan quyidagi taklif va xulosalar ishlab chiqildi:**

1. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi 60-moddasi va “Soliq maslahatiga oid faoliyat to'g'risida”gi Qonuni 3-moddasini quyidagi tushunchalar bilan to'ldirish taklif etiladi:

*“**Soliq maslahati** — bu muayyan vakolatga ega bo'lgan soliq maslahatchilari tashkilotining jismoniy va yuridik shaxslarga belgilangan tarif hamda shartnoma asosida soliq maslahatiga oid xizmatlar ko'rsatish faoliyati hisoblanadi*”;

*“**Soliq maslahatchisi** – bu qonunda belgilangan tartibda mijozga (ishonch bildiruvchiga) soliqlar va yig'implarni hisoblab chiqarish hamda to'lash, soliq hisobotini tayyorlash va taqdim etish, soliq imtiyozlarini qo'llashga doir tavsiyalar taqdim etish masalalari bo'yicha maslahat berish hamda soliqqa oid huquqiy munosabatlar bilan bog'liq bo'lgan boshqa xizmatlarni ko'rsatuvchi muayyan vakolatga ega bo'lgan shaxsdir*”;

*“**Renking** – soliq maslahatchilari tashkilotlarining faoliyatini tavsiflovchi muayyan ko'rsatkichlar bo'yicha guruhlariga ajratilgan soliq maslahatchilari tashkilotlarining tartibga solingan ro'yxatlarini shakllantirish*”.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Soliq maslahatiga oid faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni 4-moddasini qo‘shimcha prinsiplar bilan to‘ldirgan holda quyidagicha yangi tahrirda bayon etish taklif etiladi:

**“4-modda. Soliq maslahatiga oid faoliyatning asosiy prinsiplari**

*Soliq maslahatiga oid faoliyatning asosiy prinsiplari qonuniylik, mustaqillik, kasbiy bilimga egalik, maxfiylik, kasbiy javobgarlik va professional xulq-atvordan iboratdir”.*

3. O‘zbekiston Respublikasining “Soliq maslahatiga oid faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni 4-moddasi qo‘shimcha prinsiplar bilan to‘ldirilganligi munosabati bilan quyidagi tahrirdagi yangi 8<sup>1</sup>- va 8<sup>2</sup>-moddalar bilan to‘ldirish taklif etiladi:

**“8<sup>1</sup>-modda. Kasbiy javobgarlik prinsipi**

*Soliq maslahatchisi o‘zi tomonidan ko‘rsatilayotgan soliqqa oid maslahat xizmatining sifati va oqibati uchun javobgardir”.*

**“8<sup>2</sup>-modda. Professional xulq-atvor prinsipi**

*Soliq maslahatchisi o‘zining professional kasbiy faoliyati davomida soliq maslahatchisi kasbining nufuziga putur yetkazadigan har qanday xatti-harakat va odatlardan yiroq yurmog‘i lozim. Shuningdek, soliq maslahatchisi bevosita mehnat faoliyati va shaxsiy hayotida ham o‘zining namunali va go‘zal xulq-atvori bilan barchaga o‘rnak bo‘lishi shart”.*

4. O‘zbekiston Respublikasining “Soliq maslahatiga oid faoliyat to‘g‘risida”gi qonuniga yangi tahrirdagi 10<sup>1</sup>-moddasini kiritish va quyidagicha bayon etish taklif etiladi:

**“10<sup>1</sup>-modda. Soliq maslahati faoliyati sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari**

*Soliq maslahati faoliyati sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:*

*soliq maslahati faoliyatini va soliq maslahati xizmatlari bozoridagi halol raqobatni ilg‘or xalqaro amaliyot asosida rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;*

*soliq maslahatining o‘rnini, ahamiyatini va ko‘rsatilayotgan soliq maslahati xizmatlarining sifati uchun soliq maslahati tashkilotlarining javobgarligini oshirish;*

*soliq maslahatchilarini kasbga tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish;*

*soliq maslahatchilari tashkilotlarining ishi sifatini tashqi nazorat qilish tizimini shakllantirish;*

*yoshlarni soliq maslahatchisi kasbiga jalb etish va kasbga oid soliq maslahatchilari jamoat birlashmalarining tegishli oliy ta‘lim tashkilotlari bilan faol hamkorlik qilishini ta‘minlash”.*

5. O‘zbekiston Respublikasining “Soliq maslahatiga oid faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni 12-moddasi 2-qismini quyidagi funksiyalar bilan to‘ldirish taklif etiladi:

*“Soliq maslahatchi” ilmiy jurnalini yuritadi;*

*Soliq maslahatchilari tashkilotlari va soliq maslahatchilarining Soliq maslahatchilari palatasi bilan elektron tarzda hamkorlik qilish uchun mo'ljallangan "e-soliqmaslahatchi.uz" elektron platformasining axborot tizimi takomillashtirilishini va soliq maslahati faoliyati sohasidagi qonunchilik talablariga soliq maslahatchilari tashkilotlari tomonidan rioya etilayotganligi yuzasidan mazkur dasturiy majmua orqali masofaviy monitoring amalga oshirilishini ta'minlaydi;*

*Soliq maslahatchilari tashkilotlari va soliq maslahatchilari tomonidan "Soliq maslahatchilarining etika kodeksi"ga rioya etilishining tizimli monitoringi tashkil etilishini ta'minlaydi;*

*Renking o'tkazishning yagona tartibini belgilaydi;*

*Renking o'tkazilishini tashkil etadi va har yili 1-choragining so'ngida uning natijalarini o'z rasmiy veb-saytlarida e'lon qiladi;*

*Soliq maslahatchilari tashkilotlari va soliq maslahatchilarining faoliyatini markazlashtirilgan holda muvofiqlashtirib borish;*

*Soliq maslahatchilari faoliyati to'g'risidagi statistik ma'lumotlarni to'plash va o'rganish, soliq maslahatchilarining ijobiy ish tajribasini ommalashtirish, Soliq maslahatchilari tashkilotlariga uslubiy yordam ko'rsatish;"*

6. O'zbekiston Respublikasining "Soliq maslahatiga oid faoliyat to'g'risida"gi Qonuniga yangi tahrirdagi 16<sup>1</sup>-moddasini kiritish va quyidagicha bayon etish taklif etiladi:

**"16<sup>1</sup>-modda. Soliq maslahatchisi maqomiga ega bo'lish**

*Soliq maslahatchisi maqomiga talabgor shaxs (bundan buyon matnda talabgor deb yuritiladi) litsenziya olish uchun soliq maslahatchilari tashkilotida kamida uch oy muddat stajirovka o'tashi kerak hamda malaka imtihonini topshirishi shart.*

*Malaka imtihonini topshira olmagan talabgor uni takroran topshirishga kamida olti oydan keyin qo'yiladi.*

